

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/2 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) .....	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI .....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....	217-223
<b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI .....	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI .....	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI .....	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI .....	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI .....	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA .....	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА “FAIR PLAY” НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ .....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

**Mansurova Shohista Ismailovna,**  
Tadqiqotchi,Toshkent davlat transport universiteti  
[usevara14@gmail.com](mailto:usevara14@gmail.com)  
<https://orcid.org/0000-0002-6234-4824>

## **BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz badiiy adabiyotni tarjima qilishning maqsadi, vazifalari va usullarini o'rganamiz. Badiiy adabiyotni tarjima qilish mahorat, madaniy tushuncha va adabiyotga chuqur muhabbatni talab qiladigan murakkab va foydali jarayondir. Tarjimonlar hikoyalarni bir tildan ikkinchi tilga olib borishda hal qiluvchi rol o'yinaydi va butun dunyo o'quvchilariga adabiyotning boy gobelenlariga kirishga imkon beradi.

**Tayanch so'zlar:** tarjimashunoslik, til vositalari, estetik tuyg'ular, filologik bilim, qiyosiy uslubiyat, usul, amaliyat, tilmoch, tarjima tarixi.

**Mansurova Shohista Ismailovna,**  
Base Doctoral Student of  
Tashkent State Transport University

## **PURPOSE, TASKS AND METHODS OF TRANSLATION OF ARTISTIC TRANSLATION**

**Abstract.** In this article, we examine the purpose, tasks, and methods of translating fiction. Translating fiction is a complex and useful process that requires skill, cultural understanding, and a deep love of literature. Translators play a crucial role in translating stories from one language to another, providing readers around the world with access to the rich body of literature.

**Keywords:** translation, language tools, aesthetic feelings, philological knowledge, comparative methodology, method, practice, tilmoch, history of translation.

**Мансурова Шохиста Исмаиловна,**  
Базовый докторант,  
Ташкентский государственный университет транспорта

## **ЦЕЛЬ, ЗАДАЧИ И МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА**

**Аннотация.** В этой статье мы рассматриваем цель, задачи и методы перевода художественной литературы. Перевод художественной литературы - сложный и полезный процесс, требующий навыков, понимания культуры и глубокой любви к литературе. Переводчики играют решающую роль в переводе историй с одного языка на другой, предоставляя читателям по всему миру доступ к богатейшей литературе.

**Ключевые слова:** перевод, языковые средства, эстетические чувства, филологические знания, сравнительная методология, метод, практика, тилмоч, история перевода.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N15>

**Kirish.** Keyingi paytlarda yuzaga kelayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Lingvistik tarjimashunoslik bo'yicha yaratilayotgan

ko'pchilik taddiqotlarda tarjima nazariyasi va amaliyotining juz'iy masalalari bilan bir qatorda mazkur sohaning mohiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko'lama bosh qotirilmoqda. Bu hol lingvistik tarjimashunoslikning tadqiqtchilar e'tiborini borgan sari ko'proq o'ziga tortayotganligidan dalolat beradi. Tarjimaga lingvistik tarjimashunoslik nuqtai nazaridan yondashib, quyidagicha ta'rif berish mumkin. Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda tarjima tili qonuniyatlarasi asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo'l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarining mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi. Mazkur ta'rif tillararo amalga oshiriladigan jarayonga aloqador bo'lib, insoniyat faoliyatining ko'proq qismi mazkur amaliyot bilan bog'liqdir. Shu tufayli tarjima deganda aksariyat kishilar ko'z oldiga, birinchi navbatda, bir tildagi matnni ikkinchi tilga o'girish faoliyati namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy hamda adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudrotdir[1]. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar xaqida tushunchalar hosil bo'ladi. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida, ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima tufayli milliy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalarning mahsuli sifatida yangi g'oyaviy yo'nalishlar, yangicha syujet, janr shakllanadi. Tarjima Vatan adabiyotiga yangi obrazlar, badiiy-tasviri vositalar hadya etadi. Ammo shuni ham nazarda tutish lozimki, mazkur jarayon natijasi ham tarjima istilohi yordamida ifoda etiladi. Bunda asliyatning o'girmasi bo'lmish ikkilamchi matn nazarda tutiladi. Lisoniy tarjima xilma-xil turlarga bo'linadiki, badiiy adabiyot tarjimasi ular orasida alohida o'rin tutadi. O'girilayotgan matnning xususiyati badiiy tarjimaning o'ziga xos o'rnini belgilaydi. Badiiy adabiyot namunalari boshqa nutqiy ifodalardan shunisi bilan farq qiladiki, unda badiiy-estetik va poetik jihatlar hukmronlik qiladi. Bunday asar turining asosiy vazifasi muayyan estetik ta'sirchanlikka erishishdan, badiiy obraz yaratishdan iboratdir. Ayni estetik yo'nalish badiiy nutqni axborot tarqatish vazifasi ustun boshqa nutqiy faoliyatlardan ajratib turadi. Shunday qilib, o'giriladigan matnlarni vazifalariga qarab badiiy va nobadiiy (axboriy) kabi turlarga bo'lish mumkin. Modomiki gap badiiy nutq tarkibini tashkil etuvchi alohida birlik va parchalar tarjimasi haqida ketar ekan, badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan asosiy farqini tarjimaviy matnning badiiy qimmatga egaligi bilan izohlash lozim. O'zgacha qilib aytganda, badiiy tarjima deganda asosiy vazifasi kitobxonda asliyatdagidek badiiy-estetik ta'sir uyg'ota oladigan nutqiy ifoda xosil qilishdan iborat tarjima faoliyati turiga aytildi. Tarjimaning maqsadi - xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratishdan iboratdir. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani to'la-to'kis

idroq etishi, so'ngra uni o'z tilida bekami-ko'st qayta ifodalashi darkor. Muallif yaratgan badiiy-estetik voqelikni to'laligicha idroq etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lgani xolda, badiiy asar tarkibidagi lisoniy vositalarning mazmuniy va uslubiy-estetik jihatlarini to'g'ri anglashi, shu bilan birga muallif nazarda tutgan bosh g'oyani, uning niyat va maqsadlarini ochiq-oydin ko'zga tashlanib turgan voqeа-hodisalar tasviridan tashqari yana matn ortida turgan voqelikni, bir so'z bilan aytganda nafaqat lisoniy, balki g'ayrilisoniy omillarni xam to'la-to'kis tasavvur etishi zarur. Toki natija shunday bo'lsinki, asliyat o'z kitobxoniga qanday badiiy-estetik zavq baxsh etsa, uning tarjimasi xam asarni asliyatda mutoala qila olmaydigan kitobxonga xuddi shunday taassurot in'om etsin. Kitobxon tarjimada shavq-zavq uyg'ota olmaydigan asarni muallif tomonidan past saviyada bitilgan deb baholaydi, ya'ni xom-xatala tarjima kitobxon tasavvurini chalg'itadi. Tarjimaning vazifasi - asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, to'la-to'kislikning, demakki, ifoda me'yorining buzilishiga, harfxo'rlikning sodir bo'lishiga olib keladi. Asl nusxa muallifidan vokelikni to'g'ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxani bekami-ko'st talqin etish talab qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarjimada asl nusxaning shakl va mazmun birligini, yaxlitligini bejirim ifoda etish uchun tarjima tilida muqobil ifoda vositalari qidirib topish zarurati tug'iladi. Bu jarayon asl nusxa mazmunini o'zga tilda ifoda etishning qator imkoniyatlari orasidan eng maqbulini tanlab olishni taqozo etadi. Asl nusxa va tarjima tillari lisoniy imkoniyatlari odatda o'zaro uyg'unlik holatida bo'lmasligi, ya'ni ikki til so'z va iboralarining mazmuni bilan estetik qiymati qator matniy xolatlarda bir-birining o'rnini qoplay olmasligi talay tarjimaviy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bunday hollarda ifodaning badiiy-estetik qiymatini qayta yaratish tarjimaning asliyat matniga moddiy jihatdan emas, balki vazifaviy monand kelishini taqozo etadi. Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta filologik bilim va tegishli nazariy tayyorgarlikni talab qiladi. Tarjimon nazariy bilimni tarjima amaliyoti gaxlili asosida ehtiyoj tufayli vujudga kelib, keng ko'lamda faoliyat ko'rsatayotgan tarjima nazariyasidan oladi. Tarjima nazariyasining vazifasi - asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi nisbat qonuniyatlarini kuzatishdan, xususiy tarjimaviy hodisalardan hosil bo'lgan xulosalarni ilmiy dalillar asosida umumlashtirishdan, shu yul bilan tarjima amaliyotiga ta'sir o'tkazib, uning sifatini yaxshilashga ko'maklashishdan iboratdir. Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini qidirib topish yo'li bilan muayyan tarjima muammolarini hal qilishda zarur andoza. qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Shunday qilib, ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash orqali asl nusxaning shakl va mazmun birligini tarjimada muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratish yul va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat o'zgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratish tarjima nazariyasining predmetini belgilaydi.

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik soha sifatida asosan XX asrning 50-yillardan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsa-da, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz garchi yozilmagan, tartibga keltirilmagan, umumlashtirilmagan bo'lsada, ko'p

asrlar mobaynida qabul qilingan, rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar. Tarjima nazariyasining ahamiyati shundan iboratki, u ayrim tarjimonlarning sub'yektiv mayliga, matn tarjimasiga intuitsiya yo'li bilan yondashib, o'zboshimchalarcha ish ko'rishlariga to'siq qo'yadi. Chunki Tarjima - bu ilhom, yuksak iste'dod va intuitsiya bilan chuqur filologik bilim, tinimsiz lug'aviy mehnat hamda o'rinli ilmiy sharhning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayondir. Zero, har qanday amaliy faoliyat singari tarjimachilik ham qonuniyatlar joriy qilinishiga va nazariy umumlashmalar yaratilishiga ehtiyoj sezadi. Bunday qonuniyat va umumlashmalar, o'z navbatida, kengroq miqyosdagi xulosalarga olib kelgani holda, ularni qator tarjimaviy hodisalarga tatbiq etishga da'vat etadi. Tarjima odatda tarixiy-madaniy, adabiyotshunoslik, lisoniy-uslubiy, ruhshunoslik yo'nalishlarida tadqiq etiladi. Ammo bu yo'nalishlarning barchasi yo'bevosita, yo bilvosita mazkur sohalarning biri lisoniy-uslubiy yo'nalishida o'z aksini topadi, chunki tarjima hamma vaqt til materiallari bilan ish ko'rishni taqozo etadigan jarayondir. Binobarin, tarjima nazariyasida ikki til lingvistik-stilistik vositalari bilan bog'liq lisoniy tadqiq yo'nalishi alohida o'rin tutadi. Demak, tarjima amaliyotini hatto adabiyotshunoslik yo'nalishida o'rganish ham, aksariyat hollarda, til hodisalarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi[2].

Shunday qilib, tarjimaviy umumlashmalar yaratish uchun turli juft tillar lisoniy-uslubiy vositalarini qiyosiy o'rganish hamda badiiy matnning estetik o'ziga xosligini tashkil etuvchi unsurlar tarkibida mujassamlashgan semantik-uslubiy va pragmatik (sharoitdan kelib chiqiladigan) xususiyatlarni muayyan qilish uslubiy asosga tayanishni taqozo etadi. Zero, shu narsa ayonki, tilning har bir vositasi ayniqsa badiiy asar tili vositalari bevosita yoki bilvosita uslubiy vazifalar ifodasi uchun xizmat kiladi: har bir til hodisasi, bayon etilgan fikrning ko'lamidan qat'iy nazar, ma'lum darajada uslubiy bo'yoq kasb etishi mumkin. Til vositalarining bunday xususiyati tarjima nazariyasini lingvotarjimaviy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qiyosiy uslubiyat bilan yaqinlashtiradi. Keyingi o'n yilliklar mobaynida barcha mamlakatlardagi singari bizning yurtimizda ham tarjimachilik faoliyati izchil rivojlanib kelmoqda. Unga hamohang tarzda tarjimalarning sifati ham asta-sekin yaxshilanmoqda. Bunga sezilarli turtki berayotgan omillardan biri - tarjima nazariyasining so'nggi paytlarda jiddiy ravishda oldinga siljib borayotganligidadir. Tarjima nazariyasi o'z tadqiqotlarini boshqa qator an'anaviy filologik, ayniqsa lingvistik tadqiqot metodlaridan o'rni bilan foydalangani holda, ko'proq qiyosiy-solishtirma metod bilan chambarchas bog'liqlikda qo'llaniladigan semantik-uslubiy metod asosida olib boradi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batafsil tahlil qilish zarurati lingvistik tadqiqotning boshqa ayrim maxsus metodlaridan ham, jumladan, komponentlar tahlili metodidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday paytda qiyoslanayotgan ikki til birliklarining turli kontekstlarda qo'shimcha ma'no va ma'no belgilari kasb etish holatlari tahlil etiladi. Bir-birlarini to'ldirishga xizmat qiladigan mazkur metodlar amalga oshirilgan tarjimalarni har jihatdan puxta va xolis baholash imkoniyatini beradi. Shunday qilib, mamlakatimizda tarjimachilik hozirgi kunda o'z tarixiga, rivojlanish xususiyatlariga, an'analariga, tadqiqot metodlariga hamda tamoyillariga ega bo'lgan ijodiy jarayonga aylanib qoldi. Uning nazariy asoslari tadqiqotchilar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar vakillari bir-birlari bilan muomala-munosabatda bo'lganlarida azaldan tarjimon (tilmoch) yordamiga ehtiyoj sezganlar. Savdo-sotiq ishlari, diplomatik munosabatlar

va madaniy-ma'rifiy aloqalar paytida hamma vaqt tarjimaga zarurat tug'ilgan. Shu bois xalqlar o'z tarjimonlariga chuqur hurmat bilan qaraganlar. Uzoq davrlar mobaynida og'zaki shaklda hukm surgan tarjimachilik faoliyati asta-sekin yozma usulga ham ko'chgan. Mamlakatlar o'rtasida o'rnatila boshlagan aloqa va munosabatlar turli-tuman hujjatlarning o'zga xalqlar tillariga tarjima qilinishini taqozo etgan. Davrlar o'tishi, fan-texnika, adabiyot va san'at taraqqiyoti munosabati bilan xilma-xil sohalar bo'yicha ko'plab adabiyotlar paydo bo'la boshlagan ekan, ularni ham muloqotga kirishilayotgan mamlakatlar tillariga yoki ular tillaridan ona tiliga tarjima qilishga ehtiyoj sezila boshlagan. Shunday qilib, arab, fors tillaridan, qisman hindcha, yunoncha va usmonli turkchadan, keyingi bir yarim asr mobaynida esa rus va G'arbiy Ovrupo tillaridan ona tilimizga talay adabiy, tarixiy va ilmiy-texnikaviy asarlar o'girildiki, ular o'zbek xalqi yozma adabiyotining katta ulushini tashkil etadi.

XX asr boshidan e'tiboran turli sohalar bo'yicha G'arbiy Ovrupo tillarida yaratilgan asarlarning o'zbekchaga kuplab o'girila boshlagani va bu jarayonning keyingi yarim asrdan ko'proq davr mobaynida yanada jadallahib ketgani yurtimiz ilmiy-texnikaviy salohiyatining kamol topishi va boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarining kengayishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bizning e'tiborimizni o'ziga ko'proq tortayotgan mamlakatlar qalam ahllari, chunonchi, G'arbiy Ovrupo mamlakatlari adabiyotining ajralmas bo'lagi hisoblanmish Angliya adabiyoti va inglizzabon ijodkorlar sanalmish Amerika adabiyoti vakillari asarlarning o'zbek tiliga tarjimalari haqida gap ketadigan bo'lsa, shuni alohida qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o'zbek kitobxonlari e'tiborini darhol o'ziga tortdi va tez orada ularning ko'pchiligi xalqimizning sevimli asarlariga aylanib, kitob javonlaridan o'rin oldi. Ingliz tilida qalam tebratgan yozuvchilar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, XIX asr oxiri va XX asr boshida A.Konan Doylning "Sherlok Xolms haqiqidagi hikoyalar" va Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asarlarning o'zbekchaga o'girilganligiga guvox bo'lamiz. Asarlar qisqartirilgan shaklda yarim hikoya tarzida tarjima qilingan. Masalan, 1891 yilda nashr qilingan "Mashxur ingliz Robinzoning hikoyasi" 400 betlik ruscha nashridan 77 sahifada kiskartirib amalga oshirilgan ozarbayjoncha tarjimaning Muxammad Fozilbek o'g'li tomonidan yanada qisqartirib 48 sahifada amalga oshirilgan o'zbekcha nusxasi edi.

Mazkur asarlar tarjimalari hozirgi davr talabi darajasidan uzoq bo'lsada, asrimiz boshida o'zbek madaniyatida yuz bergen katga voqe - ingliz xalqi badiiy yodgorliklarini o'zbek tiliga o'girish borasida qo'yilgan ilk qadam sifatida adabiyotimiz tarixida ahamiyatga molikdir. 30-yillarning birinchi yarmidan e'tiboran o'zbek kitobxonlari inglizzabon mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda tarjimonlar e'tiborini buyuk ingliz dramaturgi V.Shekspir ijodi ko'proq o'ziga tortdi. Dramaturgning nazmda bitilgan "Veronalik ikki yigit" komediyasini 1930 yilda Javod Obidov va "Hamlet" tragediyasini 1934 yilda shoir Cho'lpon (P.A.Kapshinning 1893 yildagi nasriy tarjimasidan) nasriy yo'l bilan o'zbek tiliga tarjima qilishdi. "Hamlet" tragediyasi tarjimasi ko'pgina jiddiy xato va kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biriga aylandi.[3]

Inglizzabon mualliflar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar soni yil sayin osha bordi. V.Shekspirning "Hamlet" tragediyasi o'zbekchaga 1938 yilda Vohid Zohidov tomonidan ikkinchi bor o'girildi. 1946 yilda V.Shekspirning "Romeo va Julietta" tragediyasini o'zbek tiliga o'girgan M.Shayxzoda 1948 yilda "Hamlet" tarjimasiga uchinchi bulib qo'l urdi. Asliyatga monand qilib B.Pasternakning ruscha tarjimasidan she'riy tarzda amalga oshirilgan bu tarjima Cho'lpon va V.Zoxidov tarjimalaridan har jihatdan mukammal edi. 1960 yilda M.Shayxzoda

Shekspirning o'zbek tiliga o'girilgan dramatik asarlari to'plami nashr etilishi munosabati bilan o'z tarjimasini qayta ko'rib chiqib, unga jiddiy tuzatishlar kiritdi.

**Xulosa.** Badiiy adabiyotni tarjima qilish bilan bog'liq maqsadlar, vazifalar va usullar xilma-xil va qiyin. Tarjimonlar iste'dodli tilshunoslar, madaniyat mutaxassislari va bag'ishlangan adabiy ixlosmandlar bo'lishi kerak. Ularning global o'quvchilarga badiiy adabiyotning go'zalligini tushunish va qadrlash imkoniyatini berishdagi rolini inobatga olish mumkin emas. Tarjimonlar muallifning ovozini saqlab qolish va asl asarning mohiyatini etkazish orqali madaniy almashinuv, o'zaro tushunish va global adabiy merosni boyitishga hissa qo'shadilar.

#### Литература/Адабиётлар/References:

1. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005.
2. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005.
3. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent "O'qituvchi" – 1983.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/2 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).